

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:

№ BD - 5510500 - 3.02

2021 yil "04" iyun

Sog'liqni saqlash vazirligi

121-sonli buyrug'i

2021 yil "04" iyun



**FARMATSEVTIKADA BOSHQARUV  
MODUL DASTURI**

**Bilim sohasi:** 500000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

**Ta'lim sohasi:** 510000 - Sog'liqni saqlash

**Ta'lim yo'nalishi:** 5510500 - Farmatsiya (Klinik farmatsiya)

**TOSHKENT – 2021**

**Tuzuvchilar:**

- Umarova Sh.Z. Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası mudiri  
proff., f.f.n.
- Sultanova G.A. Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası dotsenti, f.f.n.
- Sadikova N.A. Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrası,  
katta o'qituvchi

**Taqrizchilar:**

- Iskandarova Sh.F. Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsevtlar  
malakasini ishirish fakulteti "Farmatsevtika ishini tashkil  
qilish va farmatsevtik texnologiya" kafedrası mudiri.  
dots., f.f.d.
- Ashurov A.A. O'zRSSV Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish  
agentligi Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy tadqiqot  
instituti direktori, farmatsevtika fanlari nomzodi

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika instituti Kengashida ko'rib  
chiqilgan va tavsiya qilingan 2021 yil "26" maydagi "10" - sonli bayonnoma.

Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi  
tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'limi muassasalararo  
Muvofiqlashtirish kengashining 2021 yil "13" apreldagi "3" - sonli  
bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021  
yil "4" iyundagi "121"- sonli buyrug'ining 1-ilovasi bilan modul dasturi  
tasdiqlangan.

## **1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamalakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, PQ-4310-"Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ilmiy asoslangan javob beruvchi dasturni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Farmatsevtikada boshqaruv moduli mutahassislik fanlari modullar bloki tarkibida bo'lib, talabalarni Farmatsevtika tashkilotlarida boshqaruv tizimi va marketing asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarining shakllanishi uchun zarurdir.

Farmatsevtikada boshqaruv moduli yuqori malakali farmatsevt-mutaxassislarni tayyorlashda asosiy modullardan biri bo'lib, bu talabalar tomonidan farmatsevtik menejment va marketingga oid bilimlarni egallash, farmatsevtika boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchani shakllantiradi.

## **2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari**

### **2.1. Modulning maqsadi:**

**9-semestr:** Hamma sohalar, tarmoqlar kabi farmatsevtikada raqobatning o'sib borishi sharoitida dori vositalarini ishlab chiqaruvchi, savdosi bilan shug'ullanuvchi firmalar bozorda o'z mavqeini saqlab qolish, uni rivojlantirish, yangi bozorlarga chiqish, raqobatbardoshlikka erishish, yangi dori vositalarini iste'molchilarga taqdim etish kabi maqsadlarga erishish borasida tashkilotni zamon talabiga mos ravishda boshqarish alohida ahamiyatga egadir.

Farmatsevtika faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish uchun malakali boshqaruvchi kadrlarni tayyorlash zarur bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun Farmatsevtikada boshqaruv mutaxassislik moduli bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish asosida respublika aholisi va davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan talabini qondirishda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va uni rivojlantirishdir.

**10-semestr:** Farmatsevtika bozorida marketingning o'ziga xos xususiyatlari. Farmatsevtik marketing funksiyalari, korxonalarda marketing tizimini tashkil etish, farmatsevtika bozorida raqobatning turlari, kommunikativ siyosatni amalga oshirishda reklamani ahamiyati, O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika bozor infratuzilmasi, uning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari, farmatsevtika bozorining kon'yukturasi tushunchalarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

## 2.2. Modulning vazifalari:

**9-semestr:** ushbu maqsadga erishish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish asosida respublika aholisi va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo'lgan talabini qondirishda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va uni rivojlantirish nazarda tutiladi.

**10-semestr:** Marketing xizmatining tashkiliy tuzilmasi. Marketing axborot tizimini tashkil qilishda marketingni tashkil qilishning modellari. Farmasevtik marketing bo'limining funksiyalari va marketing rejasi, mahsulotlar raqobatbardoshligining ko'rsatkichlari, dori vositalarining reklamasining funksiyalari, savdo belgisi tushunchasi, marketing tizimida tovarning hayotiy davri tushunchalarini shakllantirishdan iboratdir.

## 2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

### 9-semestr yakunida

#### Talaba:

- Farmatsevtikada boshqaruv mohiyati;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni va bosqichlari;
- rahbarlik uslublari va ularning qo'llanishi to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi**;
- xodimlar bilan ishni tashkillashtirish, kadrlar boshqaruvi;
- boshqaruvning funksiyalari;
- dorixona mussasalari va farmatsevtik korxonalarini boshqarish usullarini
- farmatsevtik tovarlar narx siyosatini belgilashni **bilish va ulardan foydalana olishi**;
- turli mulkechilik shaklidagi dorixonalar, farmatsevtik tashkilotlarni boshqarish tizimini tashkillashtirishni bilishi;
- farmatsevtik boshqaruv muammolarining tahlili
- Xalqaro sifat standartlari (GMP, GLP, GCP, GPP, GDP, ISO 9001)
- istemolchilarning turi, talab va taklif tushunchalari bo'yicha **ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.**

### 10-semestr yakunida

#### Talaba:

- marketing tushunchasi va uning rivojlanish nazariyasi;
- korxonalarda marketing tizimini tashkil etish;
- farmatsevtika bozorida raqobatning turlari bo'yicha **tasavvurga ega bo'lishi**;
- farmatsevtika bozorining kon'yukturasi;
- farmatsevtika bozori segmentatsiyasi;
- Farmatsevtik tashkilotlar marketingining makromuxiti;
- Farmatsevtik tashkilotlar marketingining mikromuxitini **bilish va**

**ulardan foydalana olishi;**

- farmatsevtikada marketing boshqaruvi
- bozor infratuzilmasi
- Marketing – miks ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

### **3. Asosiy qism**

#### **3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

##### **9-semestr**

#### **1-mavzu. Modulga kirish. Farmatsevtika tizimini boshqarishda boshqaruv asoslari va tamoyillari. Dorixona muassasalarini boshqarish**

Boshqaruv asoslarini nazariy rivojlanishi. Farmatsevtika tizimini va faoliyatini ta'minlashda boshqaruvining o'zni. Farmatsevtikada boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Farmatsevtik tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy yondashuv. Boshqaruv tizimidagi munosabatlar, rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillari, ma'muriy boshqaruv ishini tashkil qilish. Farmatsevtik korxonalar boshqaruvida qo'llaniladigan tamoyillarni amalga oshirish. Farmatsevtik tashkilotlarni boshqarish tizimini shakllantirishda boshqarish maqsadi, uning turlari, mohiyati, boshqarish funksiyalari.

#### **2-mavzu. Farmatsevtika tashkiloti-boshqaruv ob'ekti sifatida**

Tashkilot tushunchasi. Tashkilotning hayotiy davri. Tashkilotning ichki va tashqi muhiti. Tashkilot pritsiplari. Boshqaruv va tashkil qilish asosi. Farmatsevtik tashkilotning xossalari. Farmatsevtik tashkilotni faoliyatini reglamentatsiyasi. Farmatsevtik tashkilotning rasmiy munosabatlarining asosiy sharoiti.

#### **3-mavzu. Farmatsevtika tashkilotida kadrlar boshqaruvi asoslari**

Boshqaruv madaniyati va rahbarlik uslublarini mohiyati, turlari farmatsevtika ishlab chiqarish korxonalarida rahbarning qo'ygan maqsad va vazifalariga erishishda rahbarlik qilish o'zni. Zamonaviy boshqaruvchining vakolati va tashkilot boshqaruvchi vakolatlarining markazlashuv darajasi. Boshqaruvchiga qo'yiladigan talablar.

Farmatsevtik tashkilotlarining mexnat resurslarini boshqarish. Kadrlar boshqaruvi va xodimlarni boshqarish tizimi. Farmatsevtik tashkilotlarning xodimlari va ularning tasniflanishi. Farmatsevt xodimlari attestatsiyasi. Farmatsevt xodimlarini o'qitish va malakasini oshirish.

#### **4-mavzu. Farmatsevtika boshqaruvi tizimida ijtimoiy menejment**

Farmatsevtik tashkilotni boshqarishda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarga ma'lum maqsadli ta'sir o'tkazish qonuniyatlari, xodimlar orasida yuz beradigan munosabatlarni o'rganishga e'tiborni qaratadigan sotsiologiya, boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi, ijtimoiy yondoshish.



#### **5-mavzu. Boshqaruv va rahbarlik uslublari. Farmatsevtik tashkilotlar boshqaruvida liderlik**

Farmatsevtik tashkilotlar boshqaruvida liderlik. Farmatsevtika tashkilotlarida liderlik konsepsiyalari. Rahbar mehnatining unumligini boshqaruv usullari va ko'rsatmalari. Rahbarlik uslublari mohiyati va turlari. Har bir rahbarning turli jamoada boshqaruv uslublarni qo'llash sabablari va belgilari.

#### **6-mavzu. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlari**

Xodimni ishga qabul qilish jarayonini rasmiylashtirish. Mehnat shartnomasi tushunchasi. Ishga qabul qilishda talab qilinadigan hujjatlar Mehnat shartlari belgilanishi va o'zgarishining umumiy tartibi. Ish beruvchining mehnat shartlarini xodimning rozilgisiz o'zgartirish huquqi. Xodimning mehnat shartlarini o'zgartirish huquqi.

#### **7-mavzu. Farmatsevtika tashkilotlarini boshqarishda motivatsiya**

Farmatsevtika tashkilotlarini boshqarishda motivatsiya funksiyasi, uning ahamiyati, vazifalari, usullari. Ma'muriy, informatsion va motivatsiyaning maqsadi.

#### **8-mavzu. Farmatsevtik tashkilotlarni boshqarishda kommunikatsiya**

Kommunikatsiya va koordinatsiya tushunchalari. Kommunikatsiya jarayonining mazmuni va boshqaruvi samaradorligi. Farmatsevtik korxonalaridagi kommunikatsiya muhiti. Farmatsevtik boshqaruvi pog'onalarining o'zaro kommunikatsiya tartibi. Farmatsevtik tashkilotlarida rahbar va xodimlar orasidagi kommunikatsiya.

#### **9-mavzu. Taym-menejmentni tashkil etish va uning asosiy tamoyillari**

Tashkilot tarkibida mehnat munosabatlarini boshqarish, Taym-menejmentni mohiyati va tatbiq etish yo'llarini tahlil qilish. Farmatsevtika korxonalarida rahbar mehnatini tashkil etishda taym-menejment ahamiyati va mohiyati. Taym-menejmentni tashkil etish va asosiy tamoyillari. Farmatsevtika korxonalarida vaqtni boshqarish. Dam olish vaqti. Oylik maoshlarini huquqiy nazorati. Qo'shimcha to'lovlar. Alohida guruh vakillarini mehnatini tashkil qilish.

#### **10-11 – mavzular. Farmatsevtik tashkilotlarini boshqaruv tizimida halqaro sifat standartlari**

Sifatni boshqarish halqaro standartlari MSK va MQ tizimi to'g'risida. GMP, ISO, GDP, GLP, GCP, GPP, GSP standartlari xaqida tushuncha ularning ahamiyati. Halqaro sifat standartlarini vazifalari va tamoyillari. Farmatsevtika korxonalarida sifatni xalqaro standartlarini kiritish va tashkil etish bosqichlari.

## **12-mavzu. O'zbekiston Respublikasida dori vositalarini sifatini boshqarishda sertifikatlashtirish tizimi**

O'zbekiston Respublikasi tibbiy mahsulotni sertifikatlashtirish tizimining qonuniy asoslari. Sertifikatlashtirishning maqsadi vazifalari. Sertifikatlashtirish ob'ektlari va sub'ektlari. Tibbiyot mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari. Tibbiy mahsulotni sertifikatlashtirish tartibi. Tibbiy mahsulotni sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish. Sertifikatlashtirish organlarining va sinov laboratoriyalarining javobgarligi.

## **13-mavzu. Dori vositalarini va tibbiy mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishda va xorijdan keltirishda sertifikatlashtirish tartibi**

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati. Mahalliy farmasevtik korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotni sertifikatlashtirish tartibi va bosqichlari. Xorijiy ishlab chiqaruvchilarning farmasevtik mahsulotini sertifikatlashtirish tartibi va bosqichlari. Sertifikatlashtirishda namunalarni tanlash tartibi. Sertifikatlashtirish sinovlari natijalarini tahlil qilish va muvofiqlik sertifikatini berish (rad etish) to'g'risida qaror qabul qilish. Sertifikatlangan mahsulotni inspeksion nazoratdan o'tkazish.

## **14-15 – mavzular. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida is'temolchilar xuquqlarini himoyalash va dori vositalarini qalbakilashtirish**

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtik bozorida dori vositalarini qalbakilashtirishning muammosi va uning ahamiyati. Dori vositalarining qalbakilashtirilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Qalbaki dorilar to'g'risida tushuncha. Qalbaki dorilarning standartga muvofiq kelmaslik ko'rsatkichlari. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtik bozorida dori vositalarini qalbakilashtirishning oldini olish chora-tadbirlari.

## **16-mavzu. Farmatsevtik tashkilotlar faoliyati nazorati.**

### **Farmatsevtik nazorat.**

Farmatsevtika tashkilotlari faoliyatini nazorat turlari. Xo'jalik yurutuvchi sub'ektlar faoliyatining davlat nazorati. Nazorat idoralari. Tekshiruv turlari va tekshiruv jarayonida taqdim etiladigan hujjatlar. Farmatsevtika tashkilotlari faoliyatining ixtisoslashgan (farmatsevtik) nazorati.

## **17-mavzu. Farmatsevtika boshqaruvi tizimda audit**

Auditorlik faoliyati haqida tushuncha. Auditorlik tekshiruvlari. Auditorlik faoliyati haqida tushuncha. Auditorlik tashkilot. Auditorlik tashkilotining huquqlari va majburiyatlari. Auditorlik tekshiruvini tashkil etish. Xo'jalik yurutuvchi sub'ektning auditni o'tkazishda huquqlari va majburiyatlari. Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi. Auditorlik tekshiruvining o'tkazishda cheklanishlar. Auditorlik hisoboti.

**18-mavzu. Farmatsevtika sohasida dori vositalari bilan ta'minotning davlat tomonidan tartibga solinishi. Milliy dori vositalari siyosati.**

Asosiy Dori vositalaridan to'liq foydalanilmayotir. Dori vositalari sohasidagi davlat siyosati. Dori vositalari sohasidagi davlat siyosati jarayoni. Dori vositalari sohasidagi davlat siyosati jarayoning izohi. Dori vositalari sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish.

**10-semestr**

**19-mavzu. Farmatsevtika bozori tizimida marketingning nazariy asoslari**

Marketing tushunchasi va uning rivojlanish nazariyasi. Marketingning maqsad, vazifalari, asosiy tushunchalari. Marketingning asosiy tamoillari. Marketing funksiyalari.

Farmatsevtika bozorida marketingning o'ziga xos xususiyatlari. Farmatsevtik marketing funksiyalari, asosiy ob'ektlari Farmatsevtik marketing fanining asosiy kategoriyalari. Farmatsevtik bozor muammolari yechimini topishda marketingning o'rni.

Marketing – miks tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati. Marketing – miksning asosiy elementlari va ularning ta'rifi. "Marketing – miks" konsepsiyasining zamonaviy rivoji. Farmatsevtika tashkilotlarining faoliyatini rivojlantirishda "marketing – miks" konsepsiyasini qo'llash.

**20-mavzu. Farmatsevtikada marketing jarayonini boshqarish**

Korxonalarda marketing tizimini tashkil etish. Marketing xizmatini tashkil etish. Marketing tuzilmalari. Marketing tuzilmalarining turlari. Nazorat xizmatini tashkil etish. Marketing bo'limlarining vazifa va funksiyalari.

Besh raqobat kuchlari modeli (Maykl Porter modeli). Raqobat xarakteri va har bir raqobat kuchining intensivligi. Raqobat muvaffaqiyatining asosiy omillari. Bozor imkoniyatlari va xavf-xatari. Raqobat vaziyatini tahlil etish bosqichlari. Raqobat kuchlari va ular tarkibidagi o'zgarishlarning sabablari.

**21-mavzu. Farmatsevtik korxonalarida marketing tizimini tashkil etish**

Marketing axborot tizimi va marketing rejasi. Marketing xizmatining tashkiliy tuzilmasi. Marketing axborot tizimini tashkil qilishda marketingni tashkil qilishning modellari. Farmatsevtik marketing bo'limining funksiyalari va marketing rejasi.

**22-mavzu. Farmatsevtika bozorida raqobat muhiti va farmatsevtik korxonaning raqobatbardoshligi**

Farmatsevtika bozorida raqobatning turlari. Narh raqobatlar turlari. Haqqoniy bo'lmagan raqobat haqida tushuncha. Raqobatbardoshlilik haqida tushuncha. Mahsulotlar raqobatbardoshlilikining ko'rsatkichlari. Raqobatbardoshlilikning bozorga oid omillari.



### **23-mavzu. Dori vositalari reklamasining qonuniy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari**

Kommunikativ siyosatni amalga oshirishda reklamaning ahamiyati. Reklamaning iqtisodiy o'rni. Reklamaning tasnifi. Dori vositalarining reklamasining funksiyalari. Savdo belgisi tushunchasi. Dori vositalarini reklama qilishning mahalliy o'ziga xosligi va huquqiy asoslari.

### **24-mavzu. O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika bozor infratuzilmasi, uning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari**

Mahalliy farmasevtik sohasini rivojlantirish bosqichlari. "O'zfarm sanoat" DAK faoliyatining o'rni va natijalari. Mahalliy original dori vositalarini ishlab chiqaruvchi asosiy institutlar. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha Agentlikni tashkil etish. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha Agentlikning asosiy funksiyalarini ta'riflab bering. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish.

### **25-mavzu. Farmatsevtika bozorining kon'yunkturasi**

Farmatsevtika bozorining kon'yunkturasi tushunchasi. Farmatsevtika bozorida talab va taklif muvozanati, ularning taxlili. Farmatsevtika bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar. Bozordagi narxlar darajasi va nisbatlarining tahlili. Marketing izlanishlari tizimida farmatsevtik bozorning tovar kon'yunkturasini o'rganish. Kon'yunktura tahlilida axborot ta'minoti

Noqulay kon'yunktura. Bozor kon'yunkturasining ko'rsatkichlarig. Bozor kon'yunkturasini o'rganishning sub'ektlari. Jahon farmasevtika bozorining kon'yunkturasi. O'zR farmasevtika bozori kon'yunkturasining holati.

### **26-mavzu. Farmatsevtika bozorining segmentatsiyasi**

"Bozor" iqtisodiy kategoriyasining mohiyati. "Bozor infratuzilmasi" tushunchasi. "Farmatsevtika bozori" tushunchasi. Farmatsevtika bozorining infratuzilmasi va uning asosiy elementlari. Farmatsevtik bozor sub'ektlari. Farmatsevtik mahsulot ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar va ularning tavsifi.

Farmatsevtika bozori segmentatsiyasi. Bozor segmenti tushunchasi. Farmatsevtika bozorini segmentlarga bo'lish ko'rsatkichlari. Segmentatsiyani o'tkazish usullari. Farmatsevtik tovar mavqeini belgilash (pozitsionirovanie).

### **27-mavzu. Farmatsevtik tashkilotlar marketingining makromuxiti**

Tashqi muhitni baholash. Marketing makromuhiti. Makromuhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Demografik omillar. Tabiiy ekologik omillar. Ijtimoiy – madaniy omillar. Ilmiy texnik taraqqiyot holati. Siyosiy xuquqiy omillar.

### **28-mavzu. Farmatsevtik tashkilotlar marketingining mikromuxiti**

Farmatsevtik tashkilotlar marketingining mikromuhiti va uning tarkibiy elementlari. Farmatsevtik tashkilot va uning bo'linmalari. Raqobatchilar. Mijozlar. Ta'minotchilar. Marketing vositachilari. Muloqotdagi auditoriya.

### **29-mavzu. Farmatsevtika bozori tizimida tovar siyosati**

Mahsulot siyosati tushunchasi. Mahsulot assortimentining ko'rsatkichlar bilan tavsiflanishi. Mahsulot siyosati shakllanishida "chuqurlik" ko'rsatkichi. Hayot davri bosqichlaridagi korxonaning "mahsulot guruhlari" Halqaro firmalarning mahsulot siyosati. Halqaro firmalari mahsulot siyosatining ehtimoliy uch turlari.

### **30-mavzu. Farmatsevtik tovarlarning bozordagi hayotiy davri**

Marketing tizimida tovar siyosatining mohiyati, shakllanishi, shartlari.. Tovar, uning mohiyati, toifalanishi. Farmatsevtik mahsulotning tovar sifatida bozordagi belgilari: tovar belgisi (brend), firma nomi, firma belgisi. Dori vositalarining upakovkasi va markirovkasi.

Marketing tizimida tovarning hayotiy davri tushunchasi. Tovarning hayotiy davri bosqichlarini toifalash. Tovarini bozorga chiqarish yoki tatbiq etish bosqichi. O'sish bosqichi. Yetuklik bosqichi. To'yinish bosqichi. Tushkunlik davri. Farmatsevtika mahsulotlari hayotiy davrining har bir bosqichiga mos ravishda qo'llanadigan marketing strategiyasi.

### **31-mavzu. Farmatsevtik tovarlarga narxning shakllanishi, narx siyosati**

Dori vositalari narxlarni tartibga solish tizimi. Narxning tovarning sotilishi hajmiga ta'sir qilishining moliyaviy ko'rsatkichi. Dori vositalar va tibbiyot buyumlarni chakana va ulgurji narxlarni belgilash. Farmatsevtik maxsulotga narxning shakllanishi. Narx belgilash jarayoni va uning vazifalari. Narx belgilash usullari. Ishlab chiqarilgan farmatsevtik maxsulotga narxning shakllanish bosqichlari. Dori vositalari narxlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

### **32-mavzu. Marketing tahlilini axborot manbalari bilan ta'minlanishi**

Marketing tadqiqotlari uchun axborot to'plash usullari va ularing mohiyati. Marketing tadqiqotlarining kuzatuv usuli. Tadqiqot vositalari. Anketa – so'rovnoma usuli. Anketani tuzish va savollarini belgilash. Kabinet va dala tadqiqotlari. Fokus guruhi asosida tadqiqot o'tkazish.

### **33-mavzu. Farmatsevtik marketing tadqiqotlari**

Farmatsevtik tashkilotlarning tovar siyosatini shakllantirishda dori vositalari assortimentining ahamiyati. Farmatsevtik mahsulotlar assortimentining toifalanishi. Farmatsevtik assortimentni baholash ko'rsatkichlari.

Assortimentning kontent tahlili. Dori vositalari assortimenti tahlilida sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar. Assortimentning yangilanish indeksi. Dori vositalari assortimentini ratsionalligini belgilash.

### **34-mavzu. Farmatsevtika faoliyatini tashkil etishda biznes va tadbirkorlik asoslari.**

"Tadbirkorlik" va "biznes" mohiyati. Kichik biznesning mohiyati va afzalliklari. Tadbirkorlik va biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.

O'zR da tabirkorlikning tashkiliy huquqiy shakllari. Mulkechilik shakliga ko'ra korxonalarning turlari. Farmasevtik biznesni tashkil etishda korxonalarni ta'sis etish tartibi. Farmasevtik biznesni rejalashtirish

### **3.2. Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

#### **3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarining mavzular ro'yhati:**

##### **9-semestr**

- 1-mavzu.** Modulga kirish. Farmatsevtika tizimini boshqarishda boshqaruv asoslari va tamoyillari. Dorixona muassasalarini boshqarish
- 2-mavzu.** Farmatsevtika tashkiloti - boshqaruv ob'ekti sifatida
- 3-mavzu.** Farmatsevtika tashkilotida kadrlar boshqaruvi asoslari
- 4-mavzu.** Farmatsevtika boshqaruvi tizimida ijtimoiy menejment
- 5-mavzu.** Boshqaruv va raxbarlik uslublari. Farmatsevtik tashkilotlar boshqaruvida liderlik
- 6-mavzu.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat munosabatlari
- 7-mavzu.** Farmatsevtika tashkilotlarini boshqarishda motivatsiya
- 8-mavzu.** Farmatsevtik tashkilotlarni boshqarishda kommunikatsiya
- 9-mavzu.** Taym-menejmentni tashkil etish va uning asosiy tamoyillari
- 10-11-mavzular.** Farmatsevtika tashkilotlarini boshqaruv tizimida xalqaro sifat standartlari
- 12-mavzu.** O'zbekiston Respublikasida dori vositalari sifatini boshqarishda sertifikatlashtirish tizimi
- 13-mavzu.** Dori vositalarini va tibbiy mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishda va xorijdan keltirishda sertifikatlashtirish tartibi
- 14-15-mavzular.** O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida is'temolchilar xuquqlarini himoyalash va dori vositalarini qalbakilashtirish
- 16-mavzu.** Farmatsevtik tashkilotlar faoliyati nazorati Farmatsevtik nazorat.
- 17-mavzu.** Farmatsevtika boshqaruvi tizimda audit
- 18-mavzu.** Farmatsevtika sohasida dori vositalari bilan ta'minotning davlat tomonidan tartibga solinishi. Milliy dori vositalari siyosati.

##### **10-semestr**

- 19-mavzu.** Farmatsevtika bozori tizimida marketingning nazariy asoslari
- 20-mavzu.** Farmatsevtikada marketing jarayonini boshqarish
- 21-mavzu.** Farmatsevtik korxonalarida marketing tizimini tashkil etish
- 22-mavzu.** Farmatsevtika bozorida raqobat muhiti va farmatsevtik korxonaning raqobatbardoshligi
- 23-mavzu.** Dori vositalari reklamasining qonuniy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari

- 24-mavzu.** O'zbekiston Respublikasida farmatsevtika bozor infratuzilmasi, uning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari
- 25-mavzu.** Farmatsevtika bozorining kon'yunkturasi
- 26-mavzu.** Farmatsevtika bozorining segmentatsiya
- 27-mavzu.** Farmatsevtik tashkilotlar marketingining makromuxiti
- 28-mavzu.** Farmatsevtik tashkilotlar marketingining mikromuxiti
- 29-mavzu.** Farmatsevtika bozori tizimida tovar siyosati
- 30-mavzu.** Farmatsevtik tovarlarning bozordagi hayotiy davri
- 31-mavzu.** Farmatsevtik tovarlarga narxning shakllanishi, narx siyosati
- 32-mavzu.** Marketing tahlilini axborot manbalari bilan ta'minlanishi
- 33-mavzu.** Farmatsevtik marketing tadqiqotlari
- 34-mavzu.** Farmatsevtika faoliyatini tashkil etishda biznes va tadbirkorlik asoslari.

### ***3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

### ***3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:***

#### ***Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:***

Farmatsevtikada boshqaruv dan amaliy mashg'ulotni bajarish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi ko'zda tutilgan:

#### ***9-semestr uchun***

1. Boshqarish uslublari, boshqaruv va uning bosqichlari, mehnat jamoasini boshqarish uslublari, zamonaviy boshqaruvchiga qo'yiladigan umumiy talablar asosida dorixonada raxbarlik qila oladi
2. Dorixonada xodimni ishga qabul qilish jarayonini rasmiylashtirish, dastlabki sinov muddati bilan ishga olish, mehnat shartnomasi tushunchasi, uni tuzish tartibi va ishga qabul qilishda talab qilinadigan hujjatlar bilan ishlay oladi.
3. Farmatsevtik tashkilotlarini boshqaruvida uning ahamiyati, kommunikatsiya turlari, boshqaruv kommunikatsisi jarayoni, asosiy elementlari, bosqichlari, ularning tavsiflari, kommunikatsiya samaradorligini ta'minlashda "qaytar aloqa" tushunchasi va uning ahamiyati, kommunikatsiya jarayonida







narxlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda narx belgilaydi

15. Marketing tadqiqotlari uchun axborot to'plash usullari va ularing mohiyati. Anketa – so'rovnomasi usuli. Anketani tuzish va savollarini belgilash. Kabinet va dalal tadqiqotlari. Fokus guruhi asosida tadqiqot o'tkaza oladi.

16. Farmatsevtik tashkilotlarning tovar siyosatini shakllantirishda dori vositalari assortimentining ahamiyati. Farmatsevtik mahsulotlar assortimentining toifalanishi. Farmatsevtik assortimentni baholash ko'rsatkichlari. Assortimentning ratsionalligini belgilash. Assortimentning kontent tahlili. Dori vositalari assortimenti tahlilida sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar. Assortimentning yangilanish indeksi. Dori vositalari assortimentini ratsionalligini belgilay oladi

### **Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:**

#### ***UKK-umumiy kasbiy kompetensiyalar:***

UKK-1. Axborot va maslahat ishlarini tahlil qilish va rejalashtirish;

UKK-2. Hamkasblar, iste'molchi va ta'minotchilar bilan og'zaki va yozma muloqatlarni amalga oshirish;

UKK-3. Aholining farmasevtik mahsulotlariga bo'lgan talabi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish;

UKK-4. Farmasevtik tashkilotlarda me'yoriy-huquqiy xujjatlarga muvofiq hisobot turlarini o'z ichiga olgan holda xujjat aylanmasini tashkil qilish va ta'minlash.

UKK-5. Farmasevtika tashkilotining xodimlari faoliyatini tahlil qilish va baholash;

UKK-6. Farmasevtika tashkilotida xodimlar bilan kommunikatsiya jarayonini amalga oshirish.

#### ***KK- kasbiy kompetensiyalar:***

KK-1 Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda marketing tadqiqotlarini olib borish;

KK-2 Axolini dori vositalari bilan ta'minlashning tahlili;

KK-3 Farmasevtik tashkilotni boshqarish uslublari;

KK-4 Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda marketing tadqiqotlarini olib borish;

KK-5 Farmasevtik tashkilotni boshqarish uslublarini qo'llash;

KK-6 Farmasevtika menejmentini tashkil etish;

KK-7 Farmasevtik marketingni tashkil etish;

KK-8 Sog'liqni saqlash sohasidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarga asoslanib, joriy faoliyat uchun sifat standartlarini ishlab chiqish;

KK-9 Farmasevtik tashkilotining faoliyatini har tomonlama tahlil qilish

KK-10 Hujjat aylanmasini ta'minlashni tashkil qilish.

**Modul davomida o`quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo`yicha umumiy ko`rsatma va tavsiyalar:** "Farmatsevtikada boshqaruv" modulidan o`quv amaliyot rejalashtirilmagan.

**4. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo`yicha ko`rsatma va tavsiyalar**

**4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro`yhati:**

**9-semestr**

1. Farmatsevtika tashkilotlar boshqaruvini tashkil qilish
2. Farmatsevtika tashkilotlarida mehnat qonunchiligi asoslari
3. Farmatsevtika xizmatini boshqarishda axborot tizimi
4. Milliy dori siyosati
5. Farmatsevtika bozorida marketing tizimini tatbiq etish
6. Dori vositalari reklamasining o`ziga xos tomonlari
7. Jahon miqyosida dori vositalarining qalbakilashtirishning oldini olish
8. O`zbekiston Respublikasi farmatsevtik tovarlarni sertifikatlashtirishning o`ziga xos xususiyatlari
9. Farmatsevtika tashkilotlari faoliyatining nazorati, audit
10. Farmatsevtika tashkilotida kadrlar boshqaruvi asoslari
11. Boshqaruv va raxbarlik uslublari.
12. Farmatsevtik tashkilotlar boshqaruvida liderlik
13. Farmatsevtika bozorida dori vositalarini qalbakilashtirish muammolari
14. Mehnat qonunchiligi bo`yicha asosiy ma`lumotlar.
15. Dori vositalari sifatini boshqarishda sertifikatlashtirish tizimi va asosiy tushunchalar
16. Taym-menejmentni tashkil etish va uning asosiy tamoyillari.
17. Dori vositalarini va tibbiy mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqarishda va xorijdan keltirishda sertifikatlashtirish tartibi
18. Farmatsevtik tashkilotlarni boshqarishda kommunikatsiya

**10-semestr**

1. Marketing fanining predmeti, ahamiyati va ob`ektlari
2. Iste`molchilar talabiga asosan marketing turlari va vazifalari.
3. Farmatsevtik korxonalarida marketing tizimini tashkil etish
4. Farmatsevtika bozorida raqobat muhiti va farmatsevtik korxonaning raqobatbardoshligi
5. Farmatsevtika tashkilotlarida marketing kompleksini shakllantirish
6. Dori vositalari reklamasining qonuniy asoslari va o`ziga xos xususiyatlari
7. O`zbekiston Respublikasida farmatsevtika bozor infratuzilmasi, uning shakllanishi va o`ziga xos xususiyatlari
8. Farmatsevtika bozorining kon`yunkturasi
9. Farmatsevtika bozorining segmentatsiya ko`rsatkichlari.
10. Farmatsevtik tashkilotlar marketingining makromuxiti

11. Farmatsevtik tashkilotlar marketingining mikromuxiti
12. Farmatsevtika bozori tizimida tovar siyosati
13. Farmatsevtik tovarlarning bozordagi hayotiy davri
14. Farmatsevtik tovarlarga narxning shakllanishi, narx siyosati
15. Marketing tahlilini axborot manbalari bilan ta'minlanishi
16. Dori vositalari va tibbiy maxsulotlar assortimentining tahlili

#### **4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan modulning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modullar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, biologik tekshiruv asboblari, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqotishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan modullar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish;
- keys (real vaziyatli masalalar asosida case-study) echish.
- grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
